



ISSN: 2181-9416

# YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА \* LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
**LIBRARY.RU**

# “YURIST AXBOROTNOMASI”

huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali

№5 (2025)

DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-5>

Bosh muharrir:

**KANYAZOV YESEMURAT  
SULTAMURATOVICH**

O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti direktori,  
yuridik fanlar nomzodi

Bosh muharrir o'rinbosari:

**MAXMUDOV FIRUZ  
BAXTIYOR O'G'LI**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti direktorining  
ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo'yicha  
o'rinbosari, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

## TAHRIR HAY'ATI:

### **XURSANOV RUSTAM XOLMURATOVICH**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti direktorining  
o'quv ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari,  
yuridik fanlari doktori (DSc), dotsent

### **BAYMOLDINA ZAURESH XAMITOVNA**

Qozog'iston Respublikasi  
Oliy Sudi Akademiyasi rektori,  
yuridik fanlari nomzodi

### **ZDROK OKSANA NIKOLAYEVNA**

Belorus davlat universiteti sudyalalar hamda sud,  
prokuratura va adliya muassasalari xodimlarini  
qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish  
instituti direktori

### **OQYULOV OMONBAY**

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,  
yuridik fanlar doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

### **MAMASIDDIQOV MUZAFFARJON MUSAJONOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi  
Akademiyasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

### **TASHKULOV DJURABAY**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi  
Davlat va huquq instituti tarixiy-nazariy, davlat-huquqiy  
va konstitutsiyaviy huquqiy fanlar bo'limi boshlig'i,  
yuridik fanlar doktori, professor

### **SALAYEV NODIRBEK SAPARBAYEVICH**

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,  
yuridik fanlar doktori

### **FAZILOV FARXOD MARATOVICH**

Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b.,  
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

### **RAXIMOV DANIYAR BAXTIYAROVICH**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti professori v.b.,  
yuridik fanlar doktori (DSc)

### **G'AFUROVA NOZIMAXON ELDAROVNA**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti Pedagoglar markazi  
professor v.b., yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

### **SHAKUROV RAFIK RAVILYEVICH**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti dotsenti, yuridik fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

### **RAXMONOV ZAFARJON ZAYNIDDINOVICH**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti Pedagoglar markazi dotsenti v.b.,  
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### **YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti Pedagoglar markazi dotsenti v.b.,  
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### **Mas'ul kotib:**

### **YUNUSOVA NIGORA KAMILOVNA**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti nashrlari katta mutaxassisi

### **Tahririyat bilan bog'lanish:**

100072, Toshkent shahri, Mirobod tumani,  
Hamal ko'chasi, 29-v uy  
Web: [yuristjournal.uz](http://yuristjournal.uz)  
E-mail: [yuristjournal@adliya.uz](mailto:yuristjournal@adliya.uz)  
Telefon: (+99871) 234-55-92

# Общественно-правовой и научно-практический журнал “ВЕСТНИК ЮРИСТА”

№5 (2025)

DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-5>

**Главный редактор:**

**КАНЬЯЗОВ ЕСЕМУРАТ  
СУЛТАМУРАТОВИЧ**

Директор института переподготовки и  
повышения квалификации юридических  
кадров при Министерстве юстиции Республики  
Узбекистан, кандидат юридических наук

**Заместитель главного редактора:**

**МАХМУДОВ ФИРУЗ**

Заместитель директора по научной работе и  
международному сотрудничеству Института  
переподготовки и повышения квалификации  
юридических кадров при Министерстве юстиции  
Республики Узбекистан, доктор юридических  
наук (DSc), доцент

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

### **ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ**

Первый заместитель директора по учебной работе Института  
переподготовки и повышения квалификации юридических  
кадров, доктор юридических наук (DSc), доцент

### **БАЙМОЛДИНА ЗАУРЕШ ХАМИТОВНА**

Ректор Академии правосудия при Верховном Суде  
Республики Казахстан, кандидат юридических наук

### **ЗДРОК ОКСАНА НИКОЛАЕВНА**

Директор Института переподготовки и повышения  
квалификации судей, работников прокуратуры, судов  
и учреждений юстиции Белорусского государственного  
университета

### **ОКЮЛОВ ОМОНБАЙ**

Профессор Ташкентского государственного юридического  
университета, доктор юридических наук, профессор,  
заслуженный юрист Республики Узбекистан

### **МАМАСИДДИКОВ МУЗАФФАРЖОН МУСАЖОНОВИЧ**

Начальник Академии Министерства по чрезвычайным  
ситуациям Республики Узбекистан, доктор юридических наук,  
профессор

### **ТАШКУЛОВ ДЖУРАБАЙ**

Заведующий отдела историко теоретических,  
государственно-правовых и конституционно правовых наук  
Института государства и права Академии Наук Республики  
Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

### **НОДИРБЕК САЛАЕВ САПАРБАЕВИЧ**

Профессор Ташкентского государственного  
юридического университета, доктор юридических наук

### **ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**

И.о. профессора Ташкентского государственного  
юридического университета,  
доктор юридических наук (DSc), доцент

### **РАХИМОВ ДАНИЯР БАХТИЯРОВИЧ**

И. о. профессора Института переподготовки  
и повышения квалификации юридических кадров,  
доктор юридических наук (DSc)

### **ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА**

И.О. профессора Института переподготовки  
и повышения квалификации юридических кадров  
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,  
доктор юридических наук (DSc), доцент

### **ШАКУРОВ РАФИК РАВИЛЕВИЧ**

Доцент Института переподготовки и  
повышения квалификации юридических кадров,  
кандидат юридических наук, доцент

### **РАХМОНОВ ЗАФАРЖОН ЗАЙНИДДИНОВИЧ**

И.О. доцента Института переподготовки и  
повышения квалификации юридических кадров,  
доктор философии по юридическим наукам

### **ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМОВНА**

И.О. доцента Института переподготовки и  
повышения квалификации юридических кадров,  
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

### **Ответственный секретарь:**

### **ЮНУСОВА НИГОРА КАМИЛОВНА**

Старший специалист по издательской деятельности  
Института переподготовки и повышения квалификации  
юридических кадров

### **Контакт редакции журнала:**

100072, город Ташкент, Мирабадский район,  
улица Хамал, 29-в.  
Web: [yuristjournal.uz](http://yuristjournal.uz)  
E-mail: [yuristjournal@adliya.uz](mailto:yuristjournal@adliya.uz)  
Телефон: (+99871) 234-55-92

Public, legal and scientific-practical journal of  
**“LAWYER HERALD”**

**№5 (2025)**

**DOI** <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-5>

**Chief Editor:**

**YESEMURAT KANYAZOV**

Director of the Training Institute for  
Lawyers under the ministry  
of Justice of the Republic of Uzbekistan,  
Candidate of Legal Sciences

**Deputy Chief Editor:**

**FIRUZ MAKHMUDOV**

Deputy Director for Research and  
International Cooperation of the Training Institute  
for Lawyers under the Ministry of Justice  
of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of Law (DSc), Associate Professor

---

**EDITORIAL BOARD:**

**RUSTAM KHURSANOV**

First Deputy Director for Academic  
Affairs at the Institute for Training  
Institute for Lawyers

**BAYMOLDINA ZAURESH**

Rector of the Academy of Justice  
at the Supreme Court of the Republic  
of Kazakhstan, Candidate of Legal Sciences

**OKSANA ZDROK**

Director of the Institute for Retraining and  
Qualification Upgrading of Judges,  
Prosecutors and Legal professionals  
at the Belarusian State University

**OMONBAY OKYULOV**

Professor of the Tashkent State University  
of Law, professor, Honored Lawyer  
of the Republic of Uzbekistan

**MUZAFFARJON MAMASIDDIKOV**

Head of the Academy of the Ministry of Emergency  
Situations of the Republic of Uzbekistan, Doctor of  
Juridical Sciences Law, Professor

**DJURABAY TASHKULOV**

Head of the department of Historical-Theoretical,  
State-Legal and Constitutional-Legal Sciences  
of the Institute of State and Law of the Academy  
of Sciences of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of Law, Professor

**NODIRBEK SALAEV**

Professor of the Tashkent State University of Law,  
Doctor of Law

**FAZILOV FARXOD**

Professor of the Tashkent State University of Law,  
Doctor of Law (DSc), Associate professor

**DANIYAR RAKHIMOV**

Professor of the Training Institute for Lawyers,  
Doctor of Law (DSc)

**GAFUROVA NOZIMAXON**

Professor of the Training Institute for Lawyers under  
the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of Law (DSc), Associate professor

**RAFIK SHAKUROV**

Associate Professor at the Training Institute  
for Lawyers, Candidate of Legal Sciences,  
Associate professor

**ZAFARJON RAKHMANOV**

Associate Professor at the Training Institute for  
Lawyers, Doctor of Philosophy in Law (PhD)

**FARINGIZ YUSUPOVA**

Associate Professor at the Training Institute for  
Lawyers, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

**Executive Editor:**

**NIGORA YUNUSOVA**

Senior Publications Specialist  
Training Institute for Lawyers

---

**Contact the Editorial Office:**

100072, Tashkent city, Mirabad district,  
Hamal street, 29-v  
Web: [yuristjournal.uz](http://yuristjournal.uz)  
E-mail: [yuristjournal@adliya.uz](mailto:yuristjournal@adliya.uz)  
Telefon: (+99871) 234-55-92

# YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

# ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

# LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



**G'AFUROVA Nozimaxon Eldarovna**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti professori v.b.,  
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent  
E-mail: [gafurovanozimakhon@mail.ru](mailto:gafurovanozimakhon@mail.ru)

## ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):** G'AFUROVA N.E. Adliya organlari va muassasalari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2025) B. 8-17.

 5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

### ANNOTATSIYA

Maqola O'zbekiston adliya organlarining raqamlashtirish orqali faoliyatini zamonaviylashtirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish va huquqni qo'llash amaliyotida shaffoflik hamda samaradorlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan. Muallif davlat siyosati hujjatlari va amaliy chora-tadbirlar asosida adliya tizimini raqamlashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. Maqolada huquqiy-hokimiyat hujjatlari, davlat dasturlari hamda xalqaro tajriba misollari (Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va boshqalar) asosida tizimli tahlil o'tkazilgan. Muallif adliya organlarining hozirgi imkoniyatlari, amalga oshirilgan loyihalar va mavjud kamchiliklarni solishtirma tahlil orqali ko'rsatadi hamda "Raqamli adliya" modelining tarkibiy elementlarini belgilaydi. Adliya organlarining funksiyalarini raqamlashtirish davlat xizmatlarining samaradorligini va fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, bu esa huquqiy ongni kuchaytirish va korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. O'zbekiston adliya tizimida bir qator axborot tizimlari joriy etilgan (masalan, "e-notarius", "e-huquqshunos", "e-qaror" axborot tizimi, mobil identifikatsiya tizimlari), biroq davlat xizmatining hanuz to'liq elektronlashtirilmaganligi va tizimli muammolar mavjudligi yoritilgan. Natijada, raqamli arxitektura, integratsiya, yagona identifikatsiya (SSO), huquqiy targ'ibot uchun markaziy platforma va axborot tizimlarini yangilash zaruriyati ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** adliya organlari, raqamli adliya, raqamlashtirish strategiyasi, elektron hukumat, sun'iy intellekt, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (akt), yagona raqamli arxitektura, huquqni qo'llash amaliyoti, huquqiy axborot tizimlari, davlat xizmatlari sifati, huquqiy ong va madaniyat, Data Science, big data, huquqiy islohotlar, ochiqlik va shaffoflik, integratsiyalashgan platformalar, yuridik yordam tizimi, normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi, smart justice – aqlli adliya, legal tech.

**ГАФУРОВА Нозимахон Эльдаровна**

И.о. профессора Института переподготовки  
и повышения квалификации юридических кадров  
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,  
доктор юридических наук (DSc)  
E-mail: [gafurovanozimakhon@mail.ru](mailto:gafurovanozimakhon@mail.ru)

## ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ И УЧРЕЖДЕНИЙ ЮСТИЦИИ

### АННОТАЦИЯ

Статья посвящена вопросам модернизации деятельности органов юстиции Узбекистана посредством цифровизации, повышения качества государственных услуг и обеспечения



прозрачности и эффективности в правоприменительной практике. Автор анализирует теоретические и практические аспекты цифровизации системы правосудия на основе документов государственной политики и практических мер. В статье проведен системный анализ на основе правовых документов, государственных программ и примеров международного опыта (Эстония, Южная Корея, Сингапур и др.). Автор показывает текущие возможности органов юстиции, реализованные проекты и имеющиеся недостатки посредством сравнительного анализа и определяет структурные элементы модели «Цифровая юстиция». Обосновано, что цифровизация функций органов юстиции повышает эффективность государственных услуг и качество оказания услуг гражданам, что служит повышению правового сознания и снижению коррупционных рисков. В системе юстиции Узбекистана внедрен ряд информационных систем (например, информационная система «e-notarius», «e-huquqshunos», «e-qaror», мобильные системы идентификации), однако освещается, что государственная служба до сих пор не полностью цифровизирована и существуют системные проблемы. В результате была подчеркнута необходимость обновления цифровой архитектуры, интеграции, единой идентификации (SSO), центральной платформы правовой пропаганды и информационных систем.

**Ключевые слова:** органы юстиции, цифровая юстиция, стратегия цифровизации, электронное правительство, искусственный интеллект, информационно-коммуникационные технологии (акт), единая цифровая архитектура, правоприменительная практика, правовые информационные системы, качество государственных услуг, правовое сознание и культура, data science, big data, правовые реформы, открытость и прозрачность, интегрированные платформы, система юридической помощи, экспертиза нормативно-правовых актов, smart justice - умная юстиция, legal tech.

**Gafurova Nozimakhon Eldarovna**

Professor of the Training Institute for  
Lawyers under the Ministry of Justice of the  
Republic of Uzbekistan, Doctor of Law  
E-mail: [gafurovanozimakhon@mail.ru](mailto:gafurovanozimakhon@mail.ru)

## PRIORITIES FOR IMPROVING THE ACTIVITIES OF JUSTICE BODIES AND INSTITUTIONS

### ANNOTATION

The article is devoted to the issues of modernizing the activities of the Justice bodies of Uzbekistan through digitization, improving the quality of public services and ensuring transparency and efficiency in law enforcement practice. The author analyzes the theoretical and practical aspects of the digitization of the justice system on the basis of public policy documents and practical measures. The article carried out a systematic analysis based on legal-power documents, state programs and examples of international experience (Estonia, South Korea, Singapore, etc. The author shows the current capabilities of the justice authorities, the projects carried out and the existing shortcomings through a comparative analysis, and defines the structural elements of the "digital justice" model. Digitization of the functions of the justice authorities increases the efficiency of public services and the quality of services to citizens, which is justified by the fact that it serves to strengthen legal consciousness and reduce the risk of corruption. A number of information systems have been introduced in the national justice system ("e-notarius", "e-huquqshunos", "e-qaror", mobile identification systems), but the state service is still not fully electronic and there are systemic problems. As a result, the need to upgrade digital architecture, integration, unified identity (SSO), a central platform for legal advocacy, and information systems has been highlighted.

**Keywords:** justice authorities, digital Justice, digitization strategy, e-government, artificial intelligence, ICT (ICT), unified digital architecture, law enforcement practice, legal information systems, public service quality, legal consciousness and culture, data science, big data, legal reform, openness and transparency, integrated platforms, legal aid system, regulatory legal documents expertise, smart justice, legal tech.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi ko'plab ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasi keng ko'lamli vazifalar qatorida davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida "xizmat sifatida dasturiy ta'minot", "xizmat sifatida platforma", "xizmat sifatida infratuzilma" texnologiyalarini keng joriy etish belgilangan [1].

Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, birinchi navbatda, yagona davlat huquqiy siyosatini, jumladan huquq ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek, aholining huquqiy madaniyatini oshirishning yaxlit tizimini joriy etish yo'li bilan amalga oshirishni ko'zlovchi adliya organlari va muassasalariga muhim rol ajratilmoqda.

Xususan, bu borada London Universitet kollejining Innovatsiyalar va jamoat maqsadlari instituti direktori Mariana Matsukato jamiyatni raqamlashtirish haqida shunday fikr bildiradi: "Yevropaning rivojlanishida quyidagi dinamik jarayonlar sabab bo'lgan: davlat xizmatlarini raqamlashtirishda xizmatlarni xarid qilish dasturlarini ishlab chiqish va xizmatlarni xarid qilish dasturlari orqali xususiy sektorlarni rivojlantirish kabi milliy maqsadlar aniq belgilandi" [2].

Yadova N.Ye. fikriga ko'ra, raqamlashtirish barcha ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o'rtasidagi qashshoqlik va raqamli tafovutni qisqartirishga yordam beradi [3]. Bu esa yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor maqsadlaridan biridir.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida, ayniqsa, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy ta'minlash, ularning yuridik xizmatlarini muvofiqlashtirish, huquqiy axborotni tarqatish, shuningdek, davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash masalalari bo'yicha adliya organlari va muassasalarining roli va mas'uliyatini oshirish imkonini berdi.

Darhaqiqat, O.V Romanovskaya., E.A. Romanovskayalarning ta'kidlashicha, raqamli qurilmalarning ommaviy tarqalishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi, raqamlashtirishning davlat apparati ichidagi o'zaro munosabat shakllariga ta'siri – bu holatlar butun dunyoda "Raqamli adliya" (Digital Justice) maxsus atamasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PF–5415-son Farmoniga muvofiq, adliya organlari va muassasalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlari deb quyidagilar belgilangan:

birinchi, adliya organlarini "Odilona qonunlarni qabul qilish, jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir" degan konseptual g'oyani hayotga tatbiq etishga qaratilgan yagona davlat huquqiy siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydigan professional xizmatga aylantirish;

ikkinchi, adliya organlari faoliyatiga, ustuvor ravishda, tanqidiy tahlil va huquqiy muammolarni, avvalo, bevosita joylarda ishlarni samarali tashkil etish yo'li bilan hal etishga asoslangan, sifat jihatidan yangi mexanizmlarni joriy etish;



uchinchi, davlat organlari va tashkilotlarining tuman (shahar) tuzilmalarining qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish sohasidagi faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish, tanqidiy tahlil asosida izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

to'rtinchi, huquqiy targ'ibot va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishning zamonaviy va ta'sirchan uslublarini joriy qilish, ularga qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodsizligiga barham berish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinch, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini, ma'muriy tartib-taomillar va davlat xizmatlarining sifatini kompleks va tanqidiy tahlil qilishda adliya organlarining rolini oshirish, bu sohalarda qonunchilikni yanada takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

oltinchi, o'z faoliyatlari yuzasidan jamoatchilikka tizimli ravishda ma'lumotlar taqdim etish yo'li bilan adliya organlari mansabdor shaxslarining hisobot berish tartibini joriy etish, ularning aholini tashvishga soluvchi muammolarga yuzaki munosabatda bo'lishi holatlariga chek qo'yish, shuningdek, ularning faoliyatini baholashning aniq mezonlarini belgilash;

yettinchi, yuridik kadrlarni, ayniqsa, talab qilinayotgan tor doiradagi va sohaviy mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning sifat jihatidan yangi tizimini tashkil etish, yurisprudensiya sohasidagi mutaxassislarni o'qitishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, yuridik kadrlarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalariga tizimli ravishda yuborish;

sakkizinchi, xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini huquqiy himoya qilishning samarali tizimini, xalqaro jamoatchilik va xorijiy investorlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar haqida xabardor qilish mexanizmlarini tashkil etish;

to'qqizinchi, adliya organlari va muassasalari faoliyatining moddiy-texnika ta'minotini yanada yaxshilash, xodimlarni ijtimoiy va moddiy rag'batlantirishning yangi mexanizmlarini, shu jumladan ularni xizmat uylari bilan ta'minlashni joriy etish;

o'ninchi, adliya organlari va muassasalarining barcha tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish [5].

Shu bilan birga, "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini ro'yobga chiqarish adliya organlari tizimida ma'muriy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo qilmoqda.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish va intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarda muvofiqlashgan faoliyatni ta'minlash hamda mavjud ma'muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda adolat va huquq ustuvorligini mustahkamlash, aholiga professional xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruvni yaratish, deklarativ xususiyatga ega vazifalarni bekor qilish, funksiyalarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini aniq belgilash va takrorlanishlarning oldini olish orqali budjet mablag'larini tejash va ulardan oqilona foydalanish, shu jumladan aholining huquqiy muammolarini hal etishda adliya organlarining roli va mas'uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-89-son Farmoni doirasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyati samaradorligini yanada oshirish hamda raqamlashtirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar dasturi bo'yicha bir qator muhim tadbirlar Adliya vazirligiga yuklatilgan. Jumladan, "Legal-Tech" huquqiy tarmog'ini joriy etish tizimini "sun'iy intellekt" mexanizmlaridan foydalangan holda takomillashtirish;

“e-shartnoma” yagona elektron portalini yaratish; “smart justice — aqlli adliya” veb-portali va mobil ilovasini yaratish; mobil identifikatsiya tizimini (Face ID, Digital ID, Smart ID) ishlab chiqish va ularni rivojlantirish, shuningdek, jismoniy shaxslar uchun jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamidan va yuridik shaxslar uchun soliq to'lovchi identifikatsiya raqamidan yagona login sifatida foydalanish tartibini joriy etish [6].

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan raqamli texnologiyalar rivojlanib borishi natijasida davlatimizning o'z funksiyalarini bajarish va aholi bilan muloqot olib borish shakllari ham tubdan o'zgarib bormoqda.

Hukumatning raqamli transformatsiyasi muqarrar jarayon bo'lib, uning **tizimli, o'zaro hamkorlik, ochiqlik va shaffoflik** asosida amalga oshirilishi yuqori natijadorlikka erishilishiga sabab bo'ladi.

Adliya vazirligi tomonidan ham davlat xizmatlari, FHDY, intellektual mulk, notariat, advokatura, norma ijodkorligi, huquqiy yordam va o'z funksiyalarini bajarish bilan bog'liq jarayonlarni raqamlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida qaroriga ko'ra, joriy yilning 1-martidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining tashkil qilinishi “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini har tomonlama amalga oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish hamda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish; mazkur yo'nalishda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni olib borishdagi ahamiyati katta bo'ladi [7].

Adliya vazirligi tomonidan turli funksiyalarni raqamlashtirishga qaratilgan 30 ta axborot tizimi ishlab chiqilib, ushbu axborot tizimlari vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan 85 ta veb-servislar orqali integratsiya qilindi.

Notariat sohasida barcha notarial harakatlar “Notarius” axborot tizimi orqali amalga oshirilishi yo'lga qo'yilib, 2022-yilda jami 5,3 mlndan ortiq, 2023-yilda jami 5,6 mlndan ortiq notarial harakatlar rasmiylashtirildi;

Fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, advokatura sohasini davlat organlari faoliyati bilan integratsiya qilishni nazarda tutuvchi **“Yuridik yordam”** axborot tizimi ishga tushirildi;

“E-huquqshunos”, “E-Qaror” tizimlari amaliyotga joriy etilib, huquqni qo'llash amaliyotini elektron monitoring qilish imkoniyati yaratildi.

“Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashni soddalashtirish maqsadida “Mobil ID” va “Face ID” tizimlari joriy etildi.

Shu bilan birga, vazirlikning funksiya va vazifalarini raqamlashtirishni yanada jadallashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi tizimli **muammolar mavjud:**

Jumladan, Adliya vazirligi tomonidan ko'rsatilayotgan **111** ta davlat xizmatlarining **51** tasi elektron shaklga o'tkazilmagan [8];

Axborot tizimlari va ularda saqlanadigan ma'lumotlar tizimlashtirilmagan;

Huquqiy targ'ibot materiallarini tizimlashtiruvchi va ulardan samarali foydalanish imkonini beruvchi yagona platforma mavjud emas;

Axborot tizimlaridan foydalanish tizim xodimlarini identifikatsiya qilishning, shuningdek ularning rollarini taqsimlovchi yagona tizim (SSO) yaratilmagan;

Huquqni qo'llash sohasidagi muammolarni aniqlash va ularni tizimlashtirishga mo'ljallangan axborot tizimlari ishlab chiqilmagan;

Axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishda eski tizim saqlanib qolib, yangi texnologiyalarni keng jalb etish oqsamoqda;

Adliya vazirligining funksiya va vazifalarini raqamlashtirish tizimli asosda amalga oshirilmayotganligi va bunda vazirlikning **“yagona raqamli arxitekturası”** mavjud emasligi,

idoraviy manfaatlarning o‘zaro muvofiqlashtirilmasligi hamda qisqa muddatli istiqbolsiz loyihalar sababli natijadorlik yuqori darajada emas deb ko‘rsatish mumkin.

**O‘zaro bog‘liqlik** davrida Adliya vazirligining raqamli istiqbolini boshqa vazirlik va idoralar, ayniqsa xususiy sektordan alohida ko‘rish mumkin emas va ushbu strategiya davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida qaralishi, o‘z navbatida esa boshqa tizimlarning ham rivojlanishi uchun **turtki** bo‘lishini talab etiladi.

Adliya vazirligi o‘zining funksiyalarini raqamlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirishi, belgilangan maqsadlarni “statik” (o‘zgarmas) sifatida qayd etmasdan, hayotiy vaziyatlar va texnologik yutuqlardan kelib chiqqan holda “dinamik” (doimiy harakatda bo‘luvchi) sifatida ko‘rishi nazarda tutilmoqda.

Raqamlashtirish strategiyasini shakllantirish va uni amaliyotga tatbiq etishda:

Adliya vazirligining tarkibiy bo‘linmalari jarayonlarini raqamlashtirish natijasida vazirlikning raqamli arxitekturası ishlab chiqiladi;

Vazirlikning funksional vazifalarini tahlil qilgan holda, an‘anaviy tarzda ko‘rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirish faoliyati olib boriladi;

Barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish va e‘lon qilish jarayonlarini to‘liq qamrab olishga mo‘ljallangan **project.gov.uz** va **lex.uz** platformalarining integratsiyalashgan **“ekotizim”** yaratiladi;

**Lex.uz** platformasi bazasida normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek **har bir band** kesimida huquqni qo‘llashdagi amaliyotni tahlil qilish imkoniyatini beradigan modul joriy etiladi;

Barcha normativ-huquqiy hujjatlar bo‘yicha ekspertiza xulosalarini xatboshi asosida tizimlashtirgan holda ma‘lumotlar bazasida saqlash tartibi joriy etiladi;

Axborot tizimlarida foydalanuvchilarni identifikatsiya va verifikatsiya qilish uchun Face ID texnologiyasi joriy qilinadi;

Jismoniy va yuridik shaxslarning ma‘lumotlari asosida **“Aholi yagona reyestri”** shakllantiriladi;

“e-advokat” axborot tizimi yanada takomillashtiriladi;

“e-huquqshunos” axborot tizimini “hujjat” shaklidan **meta** ma‘lumot shakliga o‘tkaziladi. Takrorlanuvchi va shablon harakatlarni algoritmlar asosida avtomatlashtirish orqali ekspertizaga kelib tushayotgan hujjatlar soni keskin kamaytiriladi;

“Intellectual mulk yagona portali”ni Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Madrid axborot tizimi bilan integratsiya qilgan holda, xalqaro talabnomalarni elektron shaklda qabul qilish, ekspertizadan o‘tkazish va natijasini qayta yuborish jarayonlari avtomatlashtiriladi;

Adliya vazirligi o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda **“G2C”**, **“G2B”** (davlat xizmatlari, huquqiy targ‘ibot, yuridik yordam va boshqalar) **“G2G”** (normative-huquqiy hujjatlar ekspertizasi va yuridik xizmatlar) tamoyillari asosida ko‘rib chiqiladi;

Barcha bosqichlarda xizmatlarni oson, sodda, foydalanish uchun qulay, tushunarli, yagona darcha tamoyili asosida va eng asosiysi **“boshidan-oxiriga qadar”** uzilmas zanjir asosida ko‘rsatilishiga e‘tibor qaratiladi;

**“Eshituvchi hukumat”** tamoyili asosida qayta aloqaning barcha turlaridan foydalangan holda muntazam takomillashtirib boriladi;

“Hayotiy vaziyatlar”dan kelib chiquvchi tartib-taomillarni raqamlashtirishga ahamiyat qaratiladi;

Vazirlik xodimlarining muhim bo'lmagan joriy vazifalarini bajarishdagi vaqtini qisqartirish orqali, kreativ loyihalar bo'yicha ishlashiga imkoniyat yaratilishi nazarda tutiladi;

“Smartfonizatsiya” jarayonlarini jadallashtirishga katta urg'u beriladi;

**Data Science va Sun'iy intellekt** loyihalarini rivojlantirishga e'tibor beriladi;

Ishlab chiqiladigan har bir axborot tizimi Adliya vazirligining, keyinchalik esa respublikaning **ekotizimiga** integratsiya qilinishi nazarda tutiladi;

Axborot xavfsizligi va raqamli infratuzilmani yaxshilash jarayonlari ko'rib chiqiladi.

Adliya vazirligining “Raqamlashtirish strategiyasi”ni amaliyotga tadbqiq etish orqali quyidagilarga erishiladi:

Aholiga va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarining muddati qisqartirilib, sifati oshiriladi, shuningdek hukumat tomonidan xizmatlar hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, proaktiv tartibda taklif etiladi;

Adliya vazirligi tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarning ish samaradorligi oshirilib, tashabbuslar va ijodiy yondashuv asosida yangi loyihalarining joriy etilishiga erishiladi;

Fuqarolarning huquqiy savodxonligi oshirilib, har qanday katusda tez va sifatli javob olish mexanizmi yaratiladi;

vazirlikning **“yagona raqamli arxitekturasini”** yaratilib, vazirlik tomonidan ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarining raqamlashtirilganlik ko'lami oshiriladi;

katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) tizimlashtirilib, ularni “Data Science” texnologiyasi orqali tahlil qilish, kelajak ko'rsatgichlarini prognozlash va sifatli ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish tizimiga o'tiladi;

ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifati oshirilib, shaffofligi ta'minlanadi;

muhim jarayonlarda qaror qabul qilishda inson omiliga chek qo'yilib, avtomatlashtiriladi.

Bugungi kunda davlat organlari faoliyatidagi raqamlashtirish nafaqat o'z-o'zidan maqsadga, balki sifat jihatidan yangi va zamonaviy tizimni yaratishning obyektiv zaruriyatiga ham aylandi. Natijada sifat jihatidan yangi va zamonaviy tizimni yaratish zarurati bilan vujudga kelgan jarayon davlat organlarining yangicha ishlash tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Global pandemiya raqamli texnologiyalarni davlat xizmatlarini ko'rsatishning zarur shartiga aylantirdi. Ko'plab keng ko'lamli raqamli innovatsiyalar misli ko'rilmagan tezlikda joriy etildi, bu esa kelajakdagi raqamli hukumat uchun poydevor yaratdi va davlat organlari faoliyatini transformatsiya qilishga olib keldi.

COVID-19 pandemiyasi elektron hukumatni tubdan isloh qilishni tezlashtirdi (ba'zi hollarda yillarga), buning natijasida davlat organlari faoliyatining raqamli transformatsiyasi yuz berdi. Shuni ta'kidlash lozimki, raqamlashtirishning ko'plab jihatlari pandemiyadan oldin ham joriy etilgan edi, biroq ular ko'proq favqulodda holatlar sifatida qaralardi. Oflayn dunyoda hali ham ustunlik qilib, doimiy ravishda kibermakonga o'rin berish talabi qondirilmas edi. Shu bilan birga, barcha jarayonlarning faollashuvi “Raqamli adliya” tushunchasining keng talqin etilishiga olib keldi. U o'z ta'sirini nafaqat sud hokimiyati ichidagi, balki boshqa ishtirokchilar (odil sudlovni ta'minlovchi yoki uning vazifalarini bajarishga ko'maklashuvchi) bilan munosabatlardagi deyarli barcha raqamli o'zaro aloqalarga yoydi. Shunda “Raqamli adliya” quyidagi sohalarni qamrab olishni boshladi:

– sud hokimiyati organlarida elektron hujjat aylanishi;

– elektron sud ishi (shu jumladan sud arxivini raqamlashtirish);

– hujjatlarni elektron saqlash (bu bulutli omborlar va ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar markazlarini yaratish masalasini ko'taradi);

– boshqa hokimiyat organlari - Bosh prokuratura, Adliya vazirligi va boshqalar bilan elektron hamkorlik;

– zamonaviy kriptohimoya tizimlari, dasturiy ta'minot (IT mutaxassislari, kompyuter tizimlari va barcha ta'minot infratuzilmalari) mavjudligi;

– elektron arxivlar va kutubxonalar tashkil etish. infratuzilma);

– elektron arxivlar va kutubxonalar tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasida pandemiyadan oldin davlat organlari raqamli texnologiyalar sohasida taraqqiyotga erishgan bo'lsa-da, bu notekis sur'atda kechgan. Ba'zi organlar sezilarli rivojlanishga erishgan bo'lsa, boshqalari hali ham raqamli transformatsiyaning dastlabki bosqichida edi. Global pandemiya boshlanishi bilan vaziyat butunlay o'zgardi. Raqamli texnologiyalar hukumat uchun shunchaki "mo'ljal" bo'lmay qoldi, balki davlat mexanizmining muhim qismiga aylandi.

Davlat organlarini raqamlashtirish ularning samarali xizmat ko'rsatish, kengayish va o'zgarishlarga tezda moslashish qobiliyatini anglatadi. Raqamlashtirish, ayniqsa, adliya organlarining faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Adliya organlarini raqamlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular mazkur organlarga yuklatilgan vazifalar va funksiyalardan kelib chiqadi. Bu, asosan, davlat xizmatlar, elektron hujjat aylanishi, ijro intizomi va hokazolarga tegishli. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan, Yagona davlat huquqiy siyosatini, jumladan norma ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarga malakali yuridik yordam ko'rsatish borasida adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish, shuningdek, sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni nazarda tutgan. 2020 — 2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-son qaroriga asosan adliya organlari va muassasalari tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilaydi [9].

Raqamli adliya modeli — bu adliya organlari va muassasalari faoliyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida tashkil etish, sud-huquq tizimida ochiqlik, shaffoflik, samaradorlik va fuqarolarga qulaylikni ta'minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv konsepsiyasidir.

Rasulev A. fikricha, dunyoda axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashish muammolari tobora global ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, BMT Bosh Assambleyasi, Yevropa kengashi, SHHT, MDH, Arab davlatlari ligasi va boshqa tashkilotlar tomonidan axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda 7 milliardga yaqin inson (dunyo aholisining 95%) elektr aloqasining ko'chma tarmoqlari bilan qamrab olingan, yiliga kiberjinoyatchilik oqibatida yetkazilgan moddiy zararning miqdori dunyo Yalpi Ichki Mahsulotning (YaIM) 1 %ni tashkil etadi [10].

Hozir butun dunyodagi insoniyatning 63 foizi internetdan foydalanadi. Qariyb bir yilda internet foydalanuvchilari soni 200 millionga ortgan. Foydalanuvchilarning asosiy qismi (92,4 foiz) mobil qurilmalar orqali internetdan foydalanadi. O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 27 milliondan oshgan, shundan 25 milliondan ko'prog'i mobil internet foydalanuvchilari hisoblanishadi [11].

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyodagi barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Ertaga juda kech bo'ladi" [12]. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli



texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir soʻz bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, sifatli taʼlim va xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi [13].

Ushbu modelning asosiy maqsadi — adliya tizimini raqamlashtirish orqali huquqni qoʻllash amaliyotini optimallashtirish, inson omilini kamaytirish va korrupsiya xavfini minimallashtirishdir.

Raqamli adliya adliya tizimining barcha boʻgʻinlarini — notariat, FHDY, yuridik xizmatlar, ijro organlari, huquqiy axborot tizimlari, advokatura va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish tizimlarini oʻz ichiga olgan yagona ekotizimni anglatadi.

Raqamli adliya modelining asosiy tamoyillari quyidagicha:

1. Shaffoflik va ochiqlik – davlat xizmatlari jarayonlarini toʻliq raqamlashtirish orqali fuqarolar uchun ularni kuzatish imkonini yaratish.

2. Fuqarolarga yoʻnaltirilganlik – xizmatlar “foydalanuvchi markazida” tamoyiliga asoslanadi, yaʼni fuqarolarga qulay interfeys va soddalashtirilgan jarayonlar.

3. Integratsiya – adliya organlari axborot tizimlarini yagona maʼlumotlar bazasiga birlashtirish, idoralararo maʼlumot almashinuvini avtomatlashtirish.

4. Ishonchlilik va xavfsizlik – shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish, identifikatsiya tizimlarini mustahkamlash.

5. Sunʼiy intellekt va tahliliy yondashuv – hujjatlarni tahlil qilish, qarorlarni tayyorlashda AI va Big Data texnologiyalarini joriy etish.

Raqamli adliya modelining mazmuni quyidagi tizimli komponentlardan iborat:

1. Elektron adliya platformasi (E-Justice Platform) – sud ishlari, huquqiy hujjatlar, ijro ishlarini yuritishning yagona raqamli muhitda amalga oshirilishini taʼminlaydi.

2. Yagona huquqiy axborot portali – barcha qonun hujjatlari, normativ bazalar, fuqarolarga moʻljallangan huquqiy maslahat xizmatlari jamlangan ochiq resurs.

3. Onlayn davlat xizmatlari tizimi – notarial harakatlar, FHDY guvohnomalari, litsenziyalar, yuridik shaxslar roʻyxatidan oʻtkazish kabi jarayonlarni toʻliq elektron shaklda amalga oshirish.

4. Raqamli identifikatsiya va elektron imzo tizimi – har bir fuqaroni yagona elektron identifikator orqali tanish, hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish.

5. Tahliliy markaz (Legal Analytics Center) – adliya organlarining faoliyati, sud qarorlari, murojaatlar statistikasi asosida tahliliy hisobotlar tayyorlaydigan markaz.

Raqamli adliya modelining joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- huquqiy jarayonlarning tezlashuvi va soddalashuvi;
- inson omiliga bogʻliqlikni kamaytirish orqali korrupsiya xavfini pasaytirish;
- adliya organlari faoliyatida samaradorlik va ishonchlilikni oshirish;
- maʼlumotlarning yagona bazada saqlanishi tufayli idoralararo integratsiyani kuchaytirish;
- fuqarolarning huquqiy savodxonligi va huquqlardan foydalanish imkonini kengaytirish.

Jahon amaliyotida “Digital Justice” konsepsiyasi AQSh, Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda muvaffaqiyatli joriy etilgan. Masalan:

• Estoniyada e-Justice portali orqali barcha sud jarayonlari onlayn kuzatiladi;

• Janubiy Koreyada “Smart Court System” yordamida fuqarolar uyidan chiqmasdan daʼvo arizasini topshira oladi;

• Singapurda esa “e-Litigation” tizimi orqali advokatlar, sudyalalar va davlat organlari yagona raqamli maydonda hamkorlik qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida ham “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida “Raqamli Adliya” loyihasi bosqichma-bosqich joriy etilib, adliya organlarining barcha xizmatlari [my.gov.uz](http://my.gov.uz), [e-ijro.uz](http://e-ijro.uz), [lex.uz](http://lex.uz), [notarius.uz](http://notarius.uz) kabi platformalarda integratsiyalashmoqda.



Xulosa qilib aytganda, adliya organlari va muassasalari faoliyatini raqamlashtirish O'zbekistonda huquqiy davlat qurish jarayonining ajralmas qismiga aylangan. "Raqamli adliya" modeli nafaqat texnologik innovatsiya, balki adolat va huquq ustuvorligini ta'minlashning samarali mexanizmidir. Ushbu yondashuv orqali davlat xizmatlarining sifati oshadi, huquqni qo'llash amaliyoti shaffoflashadi, inson omilidan kelib chiqadigan xatolik va korrupsiya xavfi kamayadi.

Raqamli arxitektura, yagona identifikatsiya tizimi, "smart justice" va "legal tech" kabi yechimlar joriy etilishi natijasida adliya organlari faoliyati integratsiyalashgan, ochiq va fuqarolarga yo'naltirilgan tizimga aylanishi kutilmoqda. Shu orqali O'zbekiston xalqaro maydonda raqamli boshqaruvning ilg'or tajribalariga mos zamonaviy huquqiy muhitni shakllantiradi.

Kelgusida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida adliya tizimini to'liq raqamlashtirish mamlakatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, adolatga ishonchni mustahkamlash va inson huquqlarini kafolatli himoya qilishning muhim omiliga aylanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, raqamli adliya modeli — bu nafaqat texnologik innovatsiya, balki adliya tizimini boshqarishning yangi falsafasidir.

Ushbu modelning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi fuqarolarning adolatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, davlat xizmatlari sifatini oshiradi hamda huquqiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

#### Iqtibos/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5030957>.
2. Джумаев А.Х. Перспективы и некоторые проблемы цифровизации в Узбекистане // Экономика и социум №6 (121) -2024 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 1023.
3. Ядова Н.Е. Современное состояние мирового рынка электронной коммерции и перспективы его развития // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Экономика. 2019. № 2. С.116-125.
4. Romanovskaya O. V., Romanovskaya Ye. A. Pravovoy rejim sifrovoy yustitsii: problemi i perspektivi // Elektronniy nauchniy jurnal «Nauka. Obshestvo. Gosudarstvo». 2024. T. 12, № 1. <http://esj.pnzgu.ru>. S. 22.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi 13-apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5415-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3681777>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-89-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5914998>.
7. Khusanov Kamoliddin, Akhrorov Muxammad, Hoshimova Nilufar. Raqamli texnologiyalarni inson hayotidagi o'rni. // research focus | volume 2 | issue 1 | 2023 ISSN: 2181-3833 ResearchBip (14) | Google Scholar | SJIF (4.597) | UIF (8.3). 594 – B.
8. Davlat xizmatlari yagona reyestrini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug'i [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 27-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3467] <https://lex.uz/docs/-6646956>.
9. 2020 — 2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish Konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son Farmoniga 1-ilova. <https://lex.uz/ru/docs/-4820060>.
10. Rasulev A.K. Axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik choralarini takomillashtirish: Yurid. fan. d-ri dis. ... avtoref. — T.: IIV Akademiyasi, 2018. — 5.5.
11. <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalanuvchilar-soni-272-milliondan-oshdi>.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga yo'llagan 2020-yil 24-yanvardagi Murojaatnomasidan. <https://mirziyo.uz/oz/taraqqiyotga-erishish-uchun-raqamli-bilimlar-va-zamonaviy-axborot-texnologiyalarini-egallashimiz-zarur-va-shart>.
13. K.S. Beysenov, Z.N. Xojibekov, Jinoyatchilikka qarshi kurashishda innovatsion g'oyalar raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari. // jinoyatchilikka qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2024-yil 28-iyun). O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi. Toshkent – 2025, 170- B.

**YURIST AXBOROTNOMASI**

5-SON, 7-JILD

**ВЕСТНИК ЮРИСТА**

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

**LAWYER HERALD**

VOLUME 7, ISSUE 5

**ISSN 2181-9416**

**DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416**